



**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI**

**24-OKTYABR
2025-YIL**



**O'zbek tilining
xalqaro maydondagi
nufuzi: tarix, bugun
va istiqbol**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI**



**O'ZBEK TILINING XALQARO MAYDONDAGI NUFUZI: TARIX,
BUGUN VA ISTIQBOL**

**ВЛИЯНИЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА НА МЕЖДУНАРОДНОЙ
АРЕНЕ: ИСТОРИЯ, СОВРЕМЕННОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ**

**THE PRESTIGE OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE
INTERNATIONAL ARENA: HISTORY, PRESENT, AND FUTURE**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami

OCTOBER 24, 2025



УДК:811.512.133(091)(100)(08)

Bugungi kunda “O‘zbekiston-2030” strategiyasining asosiy vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuqlarini amaliyotga joriy etish yo‘li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya’ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e’tirof etilishiga xizmat qilishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinnig 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni ijrosini ta’minlash hamda ta’lim jarayonida o‘zbek tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish va o‘qituvchilarga uslubiy yordam ko‘rsatish maqsadida 2025-yil 24-oktyabrda o‘tkaziladigan **“O‘zbek tilining xalqaro maydondagi nufuzi: tarix, bugun va istiqbol”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning maqolalar to‘plamini e’lon qiladi. Mazkur ilmiy maqolalar to‘plamida o‘zbek tili tarixi va uning xalqaro aloqalardagi o‘rni, hozirgi o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari, akademik litseylarda o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi, turkiy xalqlar adabiyoti tarixi, turkiy tillarning rivoji va o‘zaro o‘xshashliklari, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o‘rganish, madaniy aloqalami zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish, raqamli texnologiyalar davrida o‘zbek tilining imkoniyatlari, raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To‘plamdan dunyo bo‘yicha taniqli turkiyshunos olimlar, universitetlar, akademik litseylar professor o‘qituvchilari, iqtidorli talabalar hamda o‘quvchilarning maqolalari ham o‘rin olgan.

TAQRIZCHILAR:

Normamatov Sultonbek Ermamatovich - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori

Ismailova Vasila Shuxratovna - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

TAHRIR HAY’ATI:

Adizov Bekjon Qo‘chchiyevich - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi direktori

Aliqulova Dilbar Esanovna - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Baxtiyorov Qobuljon Odiljon o‘g‘li - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

Mazkur to‘plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2025-yil 30-oktyabrdagi 4-sonli ilmiy majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o‘zlari mas’uldirlar.



TURKIYADA ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHNING YETAKCHI TENDENSIYALARI

Cho'liiyeva Latofat Sevindikovna

ToshDO'TAU tayanch doktoranti, ToshDO'TAU akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

e-mail: cholliyevalatofat@gmail.ru

10.52773/tsuull.conf.2025.24.10/MMWG8335

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiyada Alisher Navoiy ijodini o'rganishning tarixiy va zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinadi. Maqola Navoiy asarlarining qo'lyozma nusxalari bilan ishlash, tanqidiy matnlar yaratish va tarjima jarayonlarini ko'rib chiqadi. Shuningdek, Turkiyada navoiyshunoslikning yetakchi yo'nalishlari – matnshunoslik va tarjima, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va qiyosiy tahlil – batafsil yoritiladi. Tadqiqotda magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari, nashr qilingan kitoblar va raqamli resurslar misol tariqasida keltirilgan. Maqola Navoiy merosining Turkiyada sistematik, interdisipliner yondashuv bilan o'rganilayotganini va turk-o'zbek olimlari hamkorligining ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. Alisher Navoiy, Turkiya, navoiyshunoslik, matnshunoslik, tarjima, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, qiyosiy tahlil, qo'lyozma nusxalar, Chig'atoy tili, Xamsa, doston, g'azal

Abstract. This article examines the historical and contemporary trends in the study of Alisher Navoi's works in Turkey. It analyzes the poet's recognition among Turkish scholars and poets, the study of manuscript copies, the creation of critical editions, and the translation processes. Furthermore, it outlines the leading directions in Turkish Navoi studies: textual and translation studies, linguistics, literary studies, and comparative analysis. The study includes examples from master's and doctoral



theses, published books, and digital resources. The article demonstrates the systematic and interdisciplinary approach to studying Navoi's heritage in Turkey and emphasizes the importance of collaboration between Turkish and Uzbek scholars.

Keywords: Alisher Navoi, Turkey, Navoi studies, textual criticism, translation, linguistics, literary studies, comparative analysis, manuscript copies, Chagatai language, Khamsa, epic, ghazal

Turkiyada Alisher Navoiy ijodiga qiziqish shoir tirikligi vaqtidanoq boshlangan. Xondamirning ma'lumotiga ko'ra, XV asr oxirida Hirotga turli o'lkalardan Navoiy asarlarini yuborishlari so'ralgan maktublar kelgan. Shoirning devonlari podshohlarga, sultonlarga, amir va ma'murlarga eng qimmatbaho sovg'a sifatida taqdim qilingan. Chunonchi, 1481-yilda turk sultoni Boyazid Ikkinchiga Navoiy o'zining 33 ta g'azalini hadya sifatida yuborgan. Sulton ularni Bursaga – o'sha davrning mashhur shoiri Ahmad Poshoga yuborib, ushbu g'azallarga nazira yozishni so'ragan. G'azallar shoirda katta taassurot qoldirgan va ularning barchasiga nazira bog'lagan.

Usmonli turk shoirlarining ko'pchiligi o'z asarlarida Navoiyni hurmat-ehtirom bilan tilga olganlar. Misol uchun, usmonli shoirlaridan Dukkakinzoda Yahyo Bey "Gulshani anvor" nomli asarida Alisher Navoiy haqida shunday deydi:

Mîr Nevâyî gül-i bî-hârdur

Hamsesi bir nâfe-i Tatardur.

Sözleridur aşk odunuñ sarsarı

Her biri bahr-ı gazelüñ gevheri.

Vasf idemem zât-ı hired-mendini



Ayn-i acem görmedi mânendini.³⁸

Turkiyada Navoiyga bo'lgan kuchli ishtiyoq va muxlislik navoiyshunoslikning ham ancha erta boshlanishiga sabab bo'lgan. Hozirgi kunga kelib, Navoiy hayoti, ijodi, asarlari tahlili va tarjimalariga bag'ishlangan talaygina tadqiqotlar mavjud.

Turkiyada Navoiy asarlarini o'rganish jarayoni – bu tarixan uzluksiz rivojlanayotgan, manba va metodologiya jihatidan doimiy yangilanib borayotgan ilmiy yo'l. Dastlabki filolog-manbaviy yondashuvlardan tortib, hozirgi kunda raqamli va interdisipliner tahlillargacha bo'lgan taraqqiyot, Turkiyada Navoiyshunoslikni juda xilma-xil, chuqur va amaliy jihatdan boy soha sifatida shakllantirdi. Har bir bosqichda aniq olimlar va ilmiy maktablar o'ziga xos ta'sir ko'rsatdi va bugungi tadqiqotlar shularning barchasini yangi nazariy-metodologik kesimlarda birlashtirmoqda.

Turkiya navoiyshunosligidagi yetakchi tendensiyalarni aniqlash uchun qilinayotgan tadqiqotlarni aniq yo'nalishlarga ajratib, har bir yo'nalishga oid ishlarni alohida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Turkiya navoiyshunosligini quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

1. **Matnshunoslik** va tarjima yo'nalishi.
2. **Tilshunoslik** yo'nalishi.
3. **Adabiyotshunoslik** yo'nalishi.
4. **Qiyosiy tahlil** yo'nalishi.

Har bir yo'nalish o'ziga xos metodologiya va manba bazasiga ega bo'lib, Navoiy merosining turli qatlamlarini o'rganishga xizmat qiladi.

I. Matnshunoslik va tarjima yo'nalishi.

³⁸ Çetindağ, Yusuf. Ali Şir Nevai'nin Osmanlı şiirine etkisi. – Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı, 2006, S. 12.

Turkiyada Navoiy asarlarining ilmiy-nazariy tahlili, avvalo, **matnshunoslik** sohasida shakllangan. Bunga sabab Turkiyada ko'p sonli Navoiy asarlari qo'lyozma nusxalari mavjudligidir. Hozirgi kunda Turkiyaning To'pkapi, Sulaymoniya, Ayasofiya, Nuruusmoniya kabi kutubxonalarida minglab qadimgi qo'lyozma asarlar orasida Navoiy asarlari nusxalari ham saqlanmoqda.

Bu qo'lyozmalar magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari sifatida davomli ravishda o'rganilib, tarjima qilinib, asarlarning tanqidiy-tahliliy matnlari yaratilib kelinmoqda. Quyida mana shunday tadqiqotlarning ba'zilar bilan tanishib chiqamiz:

1. 1961-yilda Muhammed Sabir "Alisher Navoiyning ilk dostoni "Hayrat ul-abror" haqida tadqiqot"³⁹ nomli doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Tadqiqot "Hayrat ul-abror"ning tanqidiy matni, ba'zi so'zlar imlosi, til xususiyatlari va lug'atdan tashkil topgan. 2016-yilda ushbu tadqiqot Professor Tanju Seyhan tomonidan nashrga tayyorlanib, "Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" (Qiyosiy matn)⁴⁰ nomi bilan Istanbulda kitob holida bosilgan.

2. 1965-yilda Günay Kutning "Alisher Navoiyning birinchi devoni: "G'aroyib us-sig'ar"⁴¹ nomli doktorlik dissertatsiyasi e'lon qilingan. 2003-yilda esa olimning ushbu ishi Türk Dil Kurumu Yayınları orasida "Alisher Navoiy "G'aroyib us-sig'ar" (Qiyosiy-tanqidiy matn)⁴² nomli 573 sahifalik kitob tarzida nashr etilgan.

³⁹ Sabir, Muhammed (1961). Ali Şir Nevâî'nin İlk Mesnevisi Hayre-tü'l-Ebrar Hakkında Araştırmalar: Edisyon Kritik-İmlâ-Dil Hususiyetleri ve Lügatçe, İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, İstanbul.

⁴⁰ Sabir, Muhammed (2016). Ali Şir Nevâyî –Hayretü'l-Ebrâr (Karşılaştırmalı Metin), yayına haz. Prof. Dr. Tanju Seyhan, Kesit Yayınları, İstanbul.

⁴¹ Kut, Günay (1965). Ali Şir Nevâyî'nin Birinci Divanı: Garâi-bü's-Sıgar, İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, İstanbul.

⁴² Kut, Günay (2003). Ali Şir Nevâyî Garâ'ibü's-Sıgar: İnceleme-Karşılaştırmalı Metin, TDK Yay., Ankara.



3. 1967-yil Gönül Alpay Tekin “Alisher Navoiy “Farhod va Shirin”⁴³ doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1994-yilda esa bu tadqiqot “Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” (Tanqidiy matn)⁴⁴ nomi bilan kitob qilib bosilgan.

4. 1985-yilda Metin Karaörs “Alisher Navoiy “Navodir ush-shabob”⁴⁵ (Asar matni va til tahlili) nomli doktorlik dissertatsiyasini yozgan.

5. 1988-yilda Kaya Türkay “Alisher Navoiy “Badoye ul-vasat”⁴⁶ mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Tadqiqot asar matni, tahlili va izohlardan tashkil topgan.

6. 1989-yilda Önal Kaya “Xazoyin ul-maoniy”ning 4-devoni “Favoyid ul-kibar” ustida tadqiqot olib borgan va asar matni, tahlili hamda bir necha betlik izohlardan iborat doktorlik dissertatsiyasini e’lon qilgan.⁴⁷

7. 1990-Hatice Tören “Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy”⁴⁸ (Asar matni, tahlili, izohlar) nomli doktorlik dissertatsiyasini e’lon qilgan. 2001-yilda bu tadqiqot Anqarada Türk Dil Kurumu Yayınları orasida kitob qilib bosilgan.⁴⁹

8. 1990-yil Vahit Türk “Majolis un-nafois”ning matni, tahlili, izohlardan iborat 2 jildlik doktorlik dissertatsiyasini yozgan.⁵⁰

9. 1993-yil Ayşehan Deniz Abik Alisher Navoiyning 3 asari: “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki Ajam”, “Munshaot” risolalarining matni, gramatik ko’rsatgichlari, lug’atlaridan iborat 2 jildlik doktorlik dissertatsiyasini yozgan.⁵¹

⁴³ Tekin, Gönül Alpay (1967). Ali Şir Nevâyî Ferhad ü Şirin, İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, İstanbul.

⁴⁴ Tekin, Gönül Alpay (1994). Ali Şir Nevâyî Ferhâd ü Şîrîn: İnceleme-Metin, TDK Yay., Ankara. 44. Tokmak, Naci (2017). M

⁴⁵ Karaörs, Metin (1985). Ali Şir Nevâyî Nevâdirü’ş-şebâb (Metin-Dil İncelemesi), İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, İstanbul.

⁴⁶ Türkay, Kaya (1988). Ali Şir Nevâyî Bedayî’u’l-Vasat (İnceleme-Metin-Dizin), Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, Ankara.

⁴⁷ Kaya, Önal (1989). Ali Şir Nevâyî Fevayidü’l-Kiber (İnceleme-Metin-Dizin), Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, Ankara.

⁴⁸ Tören, Hatice (1990). Ali-Şir Nevâyî, Sedd-i İskenderî: Metin İnceleme-Dizin (2 Cilt), İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, İstanbul.

⁴⁹ Tören, Hatice (2001). Ali Şir Nevâyî Sedd-i İskenderî: İnceleme-Metin, TDK Yay., Ankara.

⁵⁰ Türk, Vahit (1990). Neva’i Mecalîsü’n-Nefa’is Metin-İnceleme-Dizin (2 Cilt), Fırat Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, Elazığ.

⁵¹ Abik, Ayşehan Deniz (1993). Ali Şir Nevâyî’nin Risaleleri Tarih-i Enbiya ve Hükema, Tarih-i Mülûk-i Acem, Münşeat: Metin Gramatikal İndeks-Sözlük (2 Cilt), Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, Ankara.



10. 1993-yilda Ülkü Çelik “Layli va Majnun” dostonidan doktorlik dissertatsiyasi yoqlagan.⁵² 787 betlik bu dissertatsiya doston matni, ayrim grammatik ko‘rsatkichlar va izohlarni o‘z ichiga oladi.

11. 1993-yilda Zuhul Kargı Ölmez “Mahbub ul-qulub”ning tanqidiy-tahliliy matni ustida ish olib borib, asarning to‘liq matni, tahlili, lug‘atlaridan iborat doktorlik dissertatsiyasini yozgan.⁵³

12. 2001-Nursel Özdarendeli “Alisher Navoiyning ilk devoni”⁵⁴ nomli doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Bu tadqiqot ham asar matni, tahlili, izohlardan iborat.

13. 2001-yilda Anqarada Türk Dil Kurumu Yayınları tomonidan Kemal Eraslaning “Alisher Navoiy: “Majolis un-nafois”⁵⁵ kitobi nashr etilgan. Kitob kirish va asar matnidan iborat. Shu yilning o‘zida kitobning 2-qismi ham bosilgan bo‘lib⁵⁶, bu qism “Majolis un-nafois”ning turk tiliga tarjimasi va izohlarni o‘z ichiga oladi.

14. 2005-yilda Bilge Özkan Nalbant “Navodir un-nihoya”ning tanqidiy matni ustida ish olib borib, doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan.⁵⁷

15. 2009-Nahide Karahan “Alisher Navoiyga oid bir devon nusxasi tahlili”⁵⁸ nomli magistrlik dissertatsiyasini himoya qildi. Matn, grammatik ko‘rsatkichlar, izohlar va lug‘atlardan tashkil topgan bu tadqiqot Navoiyning To‘pkapi saroy kutubxonasi Revan bo‘limida 805 raqami bilan saqlanuvchi bir devoni ustida amalga oshirilgan. Bu devon “Xazoyin ul-maoniy”ning turli qismlaridan olingan 683 ta g‘azal va 6 ta ruboiydan tashkil topgan.

⁵² Çelik, Ülkü (1993). Ali Şir Nevâyî-Leyli vü Mecnun, Hacettepe Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Ankara.

⁵³ Ölmez, Zuhul Kargı (1993). Mahbûbü’l-Kulûb (İnceleme-Metin-Sözlük), Hacettepe Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, Ankara.

⁵⁴ Özdarendeli, Nursel (2001). Ali Şir Nevâyî İlk Divan İnceleme-Metin-Dizin, Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, Edirne.

⁵⁵ Eraslan, Kemal (2001). ‘Alî Şîr Nevâyî: Mecâlisü’n-Nefayis I (Giriş ve Metin), TDK Yay., Ankara.

⁵⁶ Eraslan, Kemal (2001). ‘Alî Şîr Nevâyî: Mecâlisü’n-Nefayis II (Çeviri ve Notlar), TDK Yay., Ankara.

⁵⁷ Nalbant, Bilge Özkan (2005). Nevâdirü’n-Nihâye (İnceleme, Metin, Dizin), Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, Ankara.

⁵⁸ Karahan, Nahide (2009). Ali Şir Nevâyî’ye Ait Bir Devâvîn Nüshası İncelemesi (Metin-Dil Bilgisi-Dizin-Sözlük), Erciyes Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Kayseri.



16. 2011-yil Hilal Oytun Altunning “Chig‘atoychadan XVI asr Anadolu turkchasiga bir tarjima: Navoiyning “Tarixi muluki ajam” asari”⁵⁹ kitobi nashr qilingan. Kitob tanqidiy matn, izohlar va faksimeldan tashkil topgan.

17. 2012-Hanife Gezer “Majolis un-nafois”ning ikki nusxasining solishtirmasi”⁶⁰ nomli magistrlik dissertatsiyasini yozgan. Bu tadqiqotda “Majolis un-nafois” asarining Sulaymoniya kutubxonasi Esad Efendi bo‘limida 1675 raqami bilan saqlanayotgan nusxasi va 2001-yilda Anqarada Türk Dil Kurumu Yayınları tomonidan Kemal Eraslan tomonidan nashr qilingan “Majolis un-nafois”ning “Chig‘atoy nusxasi” o‘zaro solishtirib tahlil qilingan.

18. 2015-yili Vahit Türk “Alisher Navoiy “Vaqfiya” kitobini nashr qildirgan.⁶¹ Kitob asarning tanqidiy matni, turkcha tarjimasi, izohlar va faksimeldan tashkil topgan. Shu yilning o‘zida olim Şaban Doğan bilan hamkorlikda “Hayrat ul-abror” dostonining ham tanqidiy matni va turkcha tarjimasini ishlab chiqib, “Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”⁶² nomi bilan kitob qilib chiqargan.

19. 2016-yili Fatih Bakırcı “Navoiyning umrboqiy “Xamsa” dostoni “Farhod va Shirin”⁶³ nomi bilan kirish, matn, turkchaga tarjima, izohlar va faksimeldan tashkil topgan kitobni Kesit Yayınlarında nashr qildirgan.

20. 2016-yili Tanju Oral Seyhan tomonidan “Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”⁶⁴ kitobi nashrga tayyorlangan. Kitob asar matni, alifbo tartibidagi lug‘at va izohlardan tashkil topgan.

21. 2016-yili Vahit Türk “Mahbub ul-qulub” asari tarjimasini “Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”⁶⁵ nomi bilan nashr qildirgan.

⁵⁹ Altun, Hilal Oytun (2011). Çağataycadan 16. Yüzyıl Anadolu Türkçesine Bir Çeviri: Nevâyî'nin Tevârih-i Mülûk-i Acem'i (İnceleme-Metin-Dizin-Tıpkıbasım), Bayrak Yay., İstanbul.

⁶⁰ Gezer, Hanife (2012). Mecâlisü'n-Nefâ'is'in İki Nüshasının Karşılaştırılması, Erciyes Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Kayseri.

⁶¹ Türk, Vahit (2015). Ali Şir Nevâyî Vakfiye (İnceleme-Metin-Aktarma-Dizin-Tıpkıbasım), Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü, Ankara.

⁶² Türk, Vahit, Doğan, Şaban (2015). Ali Şir Nevâyî Hayretü'l Ebrâr (Metin-Aktarma), Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü Yayınları, Ankara.

⁶³ Bakırcı, Fatih (2016). Ömer Baki Hamse-i Nevâyî -i- Ferhad ü Şirin: Giriş-Metin-Türkiye Türkçesine Aktarma-Notlar-Dizin-Tıpkıbasım, Kesit Yayınları, İstanbul.

⁶⁴ Seyhan, Tanju Oral (2016). Ali Şir Nevâyî Hayretü'l-Ebrar, (Alfabetik Sözlük-Dizin), Kesit Yay., İstanbul.

⁶⁵ Türk, Vahit (2016). Ali Şir Nevâyî Mahbûbu'l Kulub (Aktarma), Ötüken Neşriyat, İstanbul.



22. 2017-yili Vahit Türk Navoiyning 4 asarini bitta kitob shaklida nashr ettirdi. Kitob “Munshaot”, “Chihil hadis” (“Arbain”), “Nazm ul-javohir”, “Siroj ul-muslimin” asarlarining matni, izohlari, tarjimalari va faksimellarini o‘z ichiga oladi.⁶⁶

23. 2018-yili Vahit Türk “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining matni, izohlari, tarjimasi va faksimelidan iborat kitobni nashr ettirdi.⁶⁷

24. 2020-yilda ham Vahit Türk “Munshaot” asarining matni, izohlari, tarjimasi va faksimelini kitob holida bostirdi.⁶⁸

25. 2021-yilda esa olim Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyil ul-futuvvat”⁶⁹ asarini tarjima qilib, Ötüken Neşriyatda kitob qilib chiqargan.

Tadqiqotlar ko‘lamidan ko‘rinib turganidek Turkiyada navoiy asarlari tanqidiy matnlarini yaratish, asarlarning turli nusxalarini solishtirish va ularni turkchaga tarjima qilish borasida ancha-muncha ishlar amalga oshirilgan. Shuningdek, Navoiy asarlarining tanqidiy nashrlari elektron shaklda “Türk Edebiyatı Veri Tabanı” va “Digital Türkiyat” platformalarida mavjud bo‘lib, bu raqamli matnshunoslik yo‘nalishining shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Ammo shunga qaramay, hali ham qilinajak ishlar nihoyatda bisyor. Hali mavjud qo‘lyozma nusxalar o‘rganib bo‘linmasdan yana yangilari aniqlanmoqda. Masalan, “Badoye ul-bidoya” devonining Turkiyadagi 6-qo‘lyozma nusxasi 2019-yilda aniqlandi.⁷⁰

⁶⁶ Türk, Vahit (2017). Ali Şir Nevâyî Münacat, Çihil Hadis (Kırk Hadis), Nazmü'l-Cevahir, Kitab-ı Sıracu'l-Müslimin (Metin-Dizin-Aktarma-Tıpkıbasım), Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü, Ankara.

⁶⁷ Türk, Vahit (2018). Ali Şir Nevâyî Tarih-i Enbiya ve Hükema (Metin-Dizin-Aktarma-Tıpkıbasım), Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü, Ankara.

⁶⁸ Türk, Vahit (2020). Kitab-ı Münşeat (Metin-Dizin-Aktarma-Tıpkıbasım), Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü, Ankara.

⁶⁹ Türk, Vahit (2021). Ali Şir Nevâyî Nesayimü'l-Mahabbe min Şemayimü'l-Fütüvve (Tasavvuf ve Mutasavvıflar) (Aktarma), Ötüken Neşriyat, İstanbul.

⁷⁰ Эркинов Афтондил. “Истанбулда Навоийнинг ilk расмий девони янги нусхаси аниқланди”. 15.01.2020 (<https://kun.uz/news/2020/01/15/istanbulda-navoiyning-ilk-rasmiy-devoni-yangi-nusxasi-aniqlandi>)

Turkiyada Navoiy asarlari ustida qilinayotgan tadqiqotlar haqida navoiyshunos turk olimi Vahid Türk 2021-yilda yozgan “Türkiye’de Ali Şir Nevai Çalışmaları”⁷¹ maqolasida shunday deydi: “Alisher Navoiy asarlari yuzasidan amalga oshirilgan magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarining bir qismida til xususiyati tahlil qilinganligi, ammo bir qismida faqatgina matn ustida ishlanganligini ko‘rish mumkin. Asarlarining nusxalari qiyoslanib, mukammal matn nashrlarini amalga oshirish lozim. Bu yerda nomi keltirilgan tadqiqotlar, Toshkent nashrlari bilan qiyoslanganda ham mazmunga ta’sir qiluvchi ko‘plab o‘qish farqliligi borligini ko‘rish mumkin”.

Demak, Navoiy asarlari qo‘lyozma mantlarini o‘rganishda o‘zbek va turk olimlari yaqin hamkorlikda ish olib borib, 2 davlatda qilinayotgan ishlar solishtirilib, fikr almashinib turish lozim.

II. Tilshunoslik yo‘nalishi.

Tilshunoslik Turkiya navoiyshunosligining eng chuqur rivojlangan yo‘nalishlaridan biridir. Turkiyalik tilshunoslar asosan Navoiy asarlaridagi eski o‘zbek tili (**Chig‘atoy tili**) **grammatikasi, fe’llar, yordamchi so‘zlar, so‘z yasalishi, sintaksis, fonetik va morfemik** masalalariga e’tibor qaratganlar. Tilshunoslik bilan bog‘liq tadqiqotlar asosan magistrlik dissertatsiyalaridan iborat.

Misol uchun Tülay Gençtürk Demircioğlu “Alisher Navoiy devonlari ustida qilingan bir tahlil”⁷² tadqiqotida Navoiyning “Tuhfat us-salotin” asaridagi harakat nomi shakllarini o‘rgangan.

⁷¹ Türk, V. (2021). Türkiye’de Ali Şir Nevai Çalışmaları. Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi. 52, 403-442.

⁷² Demircioğlu, Tülay Gençtürk (1995). Ali Şir Nevâî Divanlarından Yapılan Bir Derleme: Tuhfetü’s-Selâtin ve Eserde Geçen İsim-Fiiller, Boğaziçi Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, İstanbul.

2002-yilda esa Aynur Turgut “Ali Şir Nevâyî’nin Eserlerinde Kelime Grupları ve Türkiye Türkçesi ile Karşılaştırılması”⁷³ magistrlik dissertatsiyasida Navoiy asarlaridagi so‘z turkumlari o‘rgangan va ularni turk tili bilan qiyoslagan.

“Mahbub ul-qulub” va “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlaridagi fe’lning vazifa shakllari tadqiq qilingan tadqiqot Nermin Değer⁷⁴ tomonidan amalga oshirilgan.

İbrahim Salih Bökö esa To‘pkapi saroyi kutubxonasidagi Revan bo‘limida 808 raqami bilan saqlanayotgan “Kulliyoti Navoiy” qo‘lyozma asar ichidan joy olgan “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni ustida tadqiqot olib borgan. Va 2018-yilda “Ali Şir Nevâyî’nin Garaibü’s-Sıgar İsimli Eserinde Edatlar”⁷⁵ (“Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” asarida ko‘makchilar”) mavzusida magistrlik dissertatsiyasini yozgan.

Tadqiqotchi Sinem Aşık⁷⁶ Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarining sintaksis jihatidan tahlil qilgan.

2019-yilda Rabia Polat “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” va “Lison ut-tayr” asarlaridagi yordamchi fe’llarni o‘rgangan va “Ali Şir Nevâyî’nin Eserlerinde Yardımcı Fiiller”⁷⁷ mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Shu yili Pakize Yıldırım⁷⁸ ismli tadqiqotchi “Saddi Iskandariy” asaridagi sifatdash va ravishdoshlarni tadqiq qilgan. Alisher Navoiyning

⁷³ Turgut, Aynur (2002). Ali Şir Nevâyî’nin Eserlerinde Kelime Grupları ve Türkiye Türkçesi ile Karşılaştırılması, Erciyes Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Kayseri.

⁷⁴ Değer, Nermin (2014). Ali Şir Nevâyî’nin Mahbubu’l-Kulüb ve Muhakemetü’l-Lügateyn Adlı Eserlerinde Fiilimsiler, Yıldız Teknik Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, İstanbul.

⁷⁵ Bökö, İbrahim Salih (2018). Ali Şir Nevâyî’nin Garaibü’s-Sıgar İsimli Eserinde Edatlar, İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, İstanbul.

⁷⁶ Aşık, Sinem (2019). Ali Şir Nevâyî’nin Muhakemetü’l-Lügateyn Adlı Eserinin Sözdizimi Bakımından İncelenmesi, Manisa Celal Bayar Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Manisa.

⁷⁷ Polat, Rabia (2019). Ali Şir Nevâyî’nin Eserlerinde Yardımcı Fiiller, Erciyes Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Kayseri.

⁷⁸ Yıldırım, Pakize (2019). Ali Şir Nevâyî’nin Sedd-i İskenderi Adlı Eserindeki Sıfat-fiiller ve Zarf-fiiller, Uşak Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Uşak.

“Tarixi anbiyo va hukamo” asaridagi gap sintaksisi tahlil qilingan tadqiqot Oğuzhan Yanginerga oid.⁷⁹

Bundan tashqari turli gazeta va jurnallarda Navoiy asarlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilingan o'nlab maqola va tezislar ham yozilgan. Timur Kocaoğluning “Alisher Navoiyning turkcha unli tovushlar haqidagi izohlari”⁸⁰ (Yopiq e/I masalasi), Metin Karaörsning “Turk tilida shart ergash gaplar va Alisher Navoiyning 2-devoni “Navodir ush-shabob”da shart ergash gaplar”⁸¹, Vahit Türkning “Alisher Navoiy g‘azallaridagi iboralar va frazalogik birliklar haqida”⁸² va “Abushqa” lug‘ati va lug‘atdan bir namuna: -ish, -il qo‘shimchali fe’llar”⁸³ kabi tezislarda Navoiy asarlaridagi turli grammatik xususiyatlar o‘rganilgan.

Tilshunoslik yo‘nalishidagi bu tadqiqotlar natijasida Navoiy asarlari nafaqat adabiy, balki **turkiy til tarixining metodik manbasi** sifatida o‘rganila boshlandi.

III. Adabiyotshunoslik yo‘nalishi.

Adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlar Navoiy asarlarining **mazmun, kompozitsiya, obrazlar tizimi va falsafiy mohiyatini** o‘rganishga qaratilgan. Bu borada ham magistrlik dissertatsiyalari, ham doktorlik ishlari, ham kitoblar mavjud. Quyida ularning ayrimlarini keltirib o‘tamiz.

Magistrlik dissertatsiyalari:

⁷⁹ Yanginer, Oğuzhan (2021). Ali Şir Nevâyî’nin Tarih-i Enbiyâ ve Hükemâ Adlı Eserinde Cümle Bilgisi, İstanbul Kültür Üniversitesi, Lisansüstü Eğitim Enstitüsü, İstanbul.

⁸⁰ Kocaoğlu, Timur (2001). “Ali Şir Nevâyî’nin Türkçe Ünlü Sesler Üzerindeki Açıklamaları (Kapalı é/i Meselesi)”, Ali Şir Nevâyî’nin 560. Doğum, 500. Ölüm Yılı Dönümlerini Anma Toplantısı Bildirileri: 24-25 Eylül 2001, TDK Yay., Ankara, 2004.

⁸¹ Karaörs, Metin (2004). “Türk Dilinde Şartlı Birleşik Cümle ve Ali Şir Nevâyî’nin II. Divanı Nevadirü’ş-Şebab’da Şartlı Birleşik Cümleler”, V. Uluslararası Türk Dili Kurultayı Bildirileri, 26-29 Eylül 2004, TDK Yay., Ankara, 2004.

⁸² Türk, Vahit (2021). Ali Şir Nevâyî Gazellerindeki Deyimlerle Kalıp Sözler Üzerine, Özbekistan Uluslararası İslam Akademisi, Nevâyî İcadı ve Bîbaha Miras, 13 Şubat 2021.

⁸³ Türk, Vahit (2021). “Abuşka Sözlüğü ve Sözlükten Bir Örnek: İş-/İl- Fiili”, Taşkent Devlet Üniversitesi, Dünya Doğu Bilimcilerinin Gözüyle Ali Şir Nevâyî, Taşkent, 5-6 Şubat 2021.

1. Uğur Köroğlu “Ali Şir Nevâî’nin Mecalisü’n-Nefayis Adlı Tezkiresindeki Türk Edip ve Şairler” (“Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasidagi turk adib va shoirilar”) 2002-yil.
2. Esmâ Acar “Ali Şir Nevâyî’nin Garaibü’s-sıgar’ında İnsan” (“Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar”ida inson”) 2013-yil.
3. Bayram Toplu “Mekarimü’l-Ahlak Kitabında Ali Şir Nevâî’nin Özellikleri” (“Makorim ul-axloq” kitobida Alisher Navoiyning xislatlari”) 2013-yil.
4. Pınar Çelik Önal “Ali Şir Nevâî’nin Osmanlı Edebiyatı Üzerine Etkisi ve Bu Etkiye Bir Örnek Olarak Ferhâd u Şîrîn Mesnevisi” (“Alisher Navoiyning Usmonli adabiyotiga ta’siri va bu ta’sirga namuna sifatida “Farhod va Shirin” dostoni”) 2015-yil.
5. Özgür Tüfek “Orta Türkçe ve Metin İncelemeleri Dersi Malzeme Örneği: Nevadirü’ş-Şebab Örneği” (“O‘rta turkcha va matn tahlili fani uchun namuna asar: “Navodir ush-shabob”) 2015-yil.
6. Emel Tekin “Ali Şir Nevâyî’nin Şeyh San’an Destanı” (“Alisher Navoiyning “Shayx Sa’non” dostoni”) 2016-yil.
7. Syed Arif Ahmadoğlu “Ali Şir Nevâyî’nin Kelamî Görüşleri” (Hamse Adlı Eseri Örneği) (“Alisher Navoiyning diniy-falsafiy qarashlari” (“Xamsa” asari namunasida) 2016-yil.
8. Tuğba Nurlu Ertürk “Ali Şir Nevâyî’de İnsan-ı Kâmil Modeli” (“Alisher Navoiyda komil inson modeli”) 2018-yil.
9. Zabihullah Rahmani “Ali Şir Nevâyî’nin Fevaidü’l-Kiber Divanı’nda (Gazeller) Sosyal Hayat İzleri” (“Alisher Navoiyning “Favoyid ul-kibar” devonidagi g‘azallarda ijtimoiy hayot izlari”) 2019-yil.

Doktorlik dissertatsiyalari

1. Yusuf Altınışik “Ali Şir Nevâyî’de Tasavvuf” (“Alisher Navoiyda tasavvuf”) 2002-yil.



2. Yusuf Çetindağ “Ali Şir Nevâî'nin Batı Türkçesi Divan Edebiyatına Tesiri” (XVI. Yüzyıl Sonuna Kadar) (“Alisher Navoiyning gʻarbiy turkchasining devon adabiyotiga taʼsiri”) (XVI asr oxiriga qadar) 2002-yil.

3. Selma Ergin “Ali Şir Nevâyî Etrafında Teşekkül Etmiş Özbek ve Türkmen Rivayetleri” (“Alisher Navoiy atrofida shakllangan oʻzbek va Turkman rivoyatlari”) 2003-yil.

4. Hilal Kalkandelen “Ali Şir Nevâî ve Farsça Divanının İçerik Açısından İncelenmesi” (“Alisher Navoiy forscha devonining mazmuniy tahlili”) 2004-yil.

Kitoblar:

1. Osman Nuri Ekiz vd. “Ali Şir Nevaî: Çağatay Edebiyatı” (“Alisher Navoiy: chigʻatoy adabiyoti”) 1986-yil.

2. Yusuf Çetindağ “Ali Şir Nevâî: Hayatı-Sanatı-Eserleri” (Alisher Navoiy: hayoti, sanʼati, asarlari) 2005-yil.

3. Mehmet Doğan Silleli “Dört Dilde Manzum Kırk Hadis Şerhi” (“Toʻrt tilde sheʼriy qirq hadis sharhi”) 2005-yil.

4. Yusuf Çetindağ “Ali Şir Nevâî'nin Osmanlı Şiirine Etkisi” (“Alisher Navoiyning usmonli sheʼrlariga taʼsiri”) 2006-yil.

5. Üzeyir Aslan “14-16. yy. Çağatay ve Azeri Edebiyatı” (“XIV-XVI asrlarda chigʻatoy va ozariy adabiyoti”) 2011-yil

6. Selma Sol “Ali Şir Nevâyî'ye Bağlı Olarak Anlatılan Rivayetler” (Özbek ve Türkmen Anlatıları) (“Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlar”) (Oʻzbek va turkman rivoyatlari) 2014-yil.

7. Sami Bülbül “Ali Şir Nevâî: Hayatı, Sanatı, Eserleri” (“Alisher Navoiy: hayoti, sanʼati, asarlari”) 2017-yil.

8. A. Hilâl Kalkandelen “Ali Şir Nevâî ve Farsça Gazelleri” (“Alisher Navoiy va forscha gʻazallari”) 2018-yil.

Ushbu tadqiqotlar Navoiy va uning asarlaridagi turli mavzularni qamrab olganligi bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Ularda Navoiy gʻoyalari **islomiy axloq va**



tasavvuf falsafasi bilan bog'liq tarzda tahlil etiladi. Navoiy atrofidagi ijodiy muhit, zamondoshlari va adabiy an'ana bilan munosabatlari ochib beriladi. Shu tariqa, Navoiy nafaqat shoir, balki **madaniy yetakchi shaxs** sifatida talqin qilinadi.

Qolaversa, Navoiy falsafasidagi "komil inson" konsepsiyasi zamonaviy gumanistik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar Navoiy ijodini **faqat adabiy manba emas, balki falsafiy-madaniy tizim** sifatida o'rganish imkonini berdi.

IV. Qiyosiy tahlil yo'nalishi.

Qiyosiy tadqiqotlarda Navoiy asarlari ba'zi **Usmonli adabiyoti** vakillari asarlari bilan solishtirilib, u orqali o'rta asr turkiy tafakkurining umumiy ildizlari ko'rsatib berilgan. Masalan, Nilgün Ateşli Usmonli turk shoiri Gulshehrining "Mantiq ut-tayr" asarini Navoiyning "Lison ut-tayr" asari bilan solishtirib "Gülşehri'nin Mantiku't-Tayr'ı ile Ali Şir Nevâyî'nin Lisanü't-Tayr'ının Şekil ve Muhteva Özellikleri Açısından Karşılaştırılması"⁸⁴ tadqiqotini yozgan bo'lsa, Pınar Çelik Önal⁸⁵ "Farhod va Shirin" dostonining Usmonli adabiyotiga ta'sirini qiyosan o'rgangan.

Bu yo'nalishdagi e'tiborga molik jihat shundaki, Turkiyada Navoiy ijodiga oid tadqiqotlar ichida nafaqat qiyosiy adabiyotshunoslik, balki qiyosiy tilshunoslikka oid dissertatsiyalar ham talaygina. Misol uchun, tadqiqotchi Turgay Akduruş Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasi va Jem Sultonning turkcha devonlari o'rtasidagi fonetik va morfemik o'xshashliklar va farqlarni o'rganib, "Ali Şir Nevâyî'nin Mecâlisü'n-Nefâ'is'i ile Cem Sultan'ın Türkçe Dîvân'ı Arasında Ses Bilgisi ve Ekler Açısından Karşılaştırma"⁸⁶ nomli dissertatsiyasini yozgan. Xuddi

⁸⁴ Ateşli, Nilgün (2010). Gülşehri'nin Mantiku't-Tayr'ı ile Ali Şir Nevâyî'nin Lisanü't-Tayr'ının Şekil ve Muhteva Özellikleri Açısından Karşılaştırılması, Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Edime.

⁸⁵ Önal, Pınar Çelik (2015). Ali Şir Nevâyî'nin Osmanlı Edebiyatı Üzerine Etkisi ve Bu Etkiye Bir Örnek Olarak Ferhâd u Şîrin Mesnevisi, İhsan Doğramacı Bilkent Üniversitesi Türk Edebiyatı Bölümü, Ankara.

⁸⁶ Akduruş, Turgay (2008). Ali Şir Nevâyî'nin Mecâlisü'n-Nefâ'is'i ile Cem Sultan'ın Türkçe Dîvân'ı Arasında Ses Bilgisi ve Ekler Açısından Karşılaştırma, Cumhuriyet Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Sivas.

shu yoʻnalishda izlanish olib borgan Trkan Aksoy⁸⁷ esa Navoiyning “Badoye ulvasat”i va Usmonli shoiri Mahmud Pashaning devonini solishtirib, ulardagi tovush va qoʻshimchalarni tahlil qilgan. Alisher Navoiyning “Favoyid ul-kibar”i va Jem Sultonning “Jemshid va Hershid”i orasida fonetik va morfemik solishtirmani 2019-yilda Sema Gmshgerdan amalga oshirib, “Ali Œir Nevâyiʼnin Fevayidl-Kiberʼi ile Cem Sultanʼın CemŒid  HarŒidʼi Arasında Ses Bilgisi ve Ekler Bakımından Bir KarŒılaŒtırma”⁸⁸ nomli magistrlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

